O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI VOBKENT TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko’chasi 55-uy, tel: (65) 33-21-550, vobkent.t@exat.uz

2022 - yil 28 - sentabr 481-2-33-Q/22 Vobkent tuman hokimligi

Vobkent tumanida dam olish kunlarida yarmarkalarni tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Vobkent tumanida dam olish kunlarida yarmarkalarni tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi 253-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalariga muvofiq, tuman hududida dam olish kunlari yarmarkalarni tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni tartibga solish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Vobkent tumanidagi fuqarolar o‘zini-o‘ziboshqarish organlarining yarmarkalar o‘tkazish bo‘yicha bergan takliflarini inobatga olib, “Vobkent dehqon bozori” MCHJ hududida har shanba va yakshanba kunlari soat 07-00 dan 17-00 gacha yarmarkalar tashkil etilishi belgilansin.

2. Yarmarkalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va ularni qayta ishlashda olingan tovarlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo‘lgan nooziq-ovqat iste’mol tovarlarini sotishga ruxsat berilishi;

yarmarkalar hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishi; yarmarkalar uchun ajratilgan savdo o‘rinlarining toza va tartibli saqlanishiga sotuvchilar mas’ul ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Yarmarkalarda mahsulotlarni sotish quyidagi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin:

tovarga oid hujjatlar (tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan sotilayotgan mahsulot jismoniy shaxs tomonidan unga yoki uning oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi, belgilangan shakldagi hujjat (ma’lumotnoma);

sotuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar.

4. “Vobkent dehqon bozori” MCHJ ma’muriyati:

yarmarkalar tashkil etish uchun bozorning aholi uchun qulay bo‘lgan qismidan, bozorning umumiy savdo maydonining 5 foizidan kam bo‘lmagan maxsus joylar ajratilishini; yarmarkalar uchun ajratilgan hududdan savdo o‘rinlarining bepul berilishini;

yarmarkalar o‘tkazilishini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritishni ta’minlasin va bozorning kirish joylariga e’lonlar joylashtirishni tashkil etilishini inobatga olsin.

5. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muqumov) har yakshanba kunlari yarmarkalar tashkil etish

uchun joy ajratilganligini, o‘tkazilayotganligini hamda yarmarkalar hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishini hamda yarmarkalarda tovarga oid hujjatlar mavjudligini doimiy nazorat qilsin.

6. Tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bo‘limi (Sh.Nabiyev) yarmarkalarda sotilayotgan mahsulotlarning turlariga qarab joylashtirish va ular sifatining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga to‘g‘ri kelishini doimiy nazoratga olsin.

7. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (O‘.Soyibov) bozor hududida yarmarkalar o‘tkaziladigan kunda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (Sh.Sharopov) mazkur qaror hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Malikov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **F.Umarov**